

Oriental Journal of Education



MODEL FOR DEVELOPING PROSPECTIVE TEACHERS' TRANSVERSAL COMPETENCIES BASED ON PROFESSIONAL REFLECTION

Barchinoy Abdirakhimovna Askarova

Basic Doctoral Student

Andijan State University

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: professional reflection, transversal competencies, future teachers, reflective journal, teacher competence, educational innovations.

Abstract: This article explores the role and importance of professional reflection in developing future teachers' transversal competencies. The study proposes an effective model for developing transversal competencies based on reflective practices.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

KASBIY REFLEKSIYA ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Barchinoy Abdirahimovna Askarova

Andijon davlat universiteti, tayanch doktoranti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kasbiy refleksiya, transversal kompetensiyalar, bo'lajak o'qituvchilar, refleksiv jurnal, o'qituvchi malakasi, ta'lim innovatsiyalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning o'rni va ahamiyati ilmiy asoslab o'rganilgan. Tadqiqot natijasida refleksiv amaliyotlar asosida transversal kompetensiyalarni shakllantirishning samarali modeli taklif etilgan.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ТРАНСВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ

Барчиной Абдирахимовна Аскарова

Базовый докторант

Андижанский государственный университет

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: профессиональная рефлексия, трансверсальные компетенции, будущие учителя, рефлексивный журнал, компетентность учителя, образовательные инновации.

Аннотация: В данной статье научно исследуются роль и значение профессиональной рефлексии в развитии трансверсальных компетенций будущих педагогов. В результате исследования предложена эффективная модель формирования трансверсальных компетенций, основанная на рефлексивных практиках.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri – kelajakda faol, ijodkor va moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalashdir. Bu jarayonda o'qituvchilarning o'z kasbiga nisbatan refleksiv yondashuvi, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning transversal (umumkasbiy) kompetensiyalarni – masalan, muloqot qilish, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv, o'z-o'zini boshqarish kabi qobiliyatlarini – rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning ahamiyati beqiyosdir [3]. Transversal kompetensiyalar faqatgina ta'lim jarayonida emas, balki hayotning barcha sohalarida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Shu sababli, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi kadrlarni tayyorlashda refleksiv yondashuv asosida transversal kompetensiyalarni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada kasbiy refleksiya orqali bo'lajak o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan modeli taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Transversal kompetensiyalar tushunchasi birinchi marta Yevropa Ittifoqida ta'lim sohasidagi strategik hujjatlarda keng qamrovli tarzda qo'llanila boshlangan. Komissiya tomonidan taklif etilgan “Kalit kompetensiyalar” to'plamida transversal kompetensiyalar ta'lim natijalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida belgilangan. [2]. O'zbekistonda ham “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturi”da transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan [1].


Kasbiy refleksiya esa o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va o'z amaliyotini takomillashtirish imkonini beruvchi jarayon sifatida tushuniladi [4]. Schönning nazariyasiga ko'ra, refleksiya “amalda o'ylash” (thinking-in-action) va “amaldan keyin o'ylash” (reflection-on-action) shakllarida sodir bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv o'ylashni rivojlantirish ularning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini, shuningdek, transversal kompetensiyalarni mustaqil shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham refleksiyaning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi rolini ta'kidlab o'tadi. Masalan, Larrivee refleksiv o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan ko'proq empatik, moslashuvchan va ijodkor yondashuvlarni qo'llashini ko'rsatgan [5]. Shu bilan birga,

transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda faqatgina nazariy bilim yetarli emas, balki amaliyot, o'z-o'zini baholash va guruhdagi hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Jahonda xalqaro ta'lim standarti tasnifi (XTST) talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan transversal kompetensiyalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida tadqiqotda umummadaniy kompetensiyalar asosida talabalarda transversal kompetensiyalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi.



1-rasm. Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Izoh: UK – umummadaniy kompetensiya; KK – kasbiy kompetensiya; PK – pedagogik kompetensiya.

1.Maqsadli blok: Talabalarda transversal kompetensiyalarni rivojlantirish uchun umummadaniy kompetensiyalar hamda kasbiy kompetensiyalarga taalluqli transversal kompetensiyalarni ajratib olish zarur, degan xulosaga kelindi. Shu maqsadda pedagogika ta'lim sohasining Davlat ta'lim standarti tahlil etildi. Natijada, Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan 29 ta

malaka talablaridan 17 tasi umummadaniy, 36 ta kasbiy kompetensiyalardan 5 tasi aynan talabalarning transversal kompetentligini rivojlantirish kompetensiyalariga taalluqli ekanligi aniqlandi.

2. Metodologik blok: Bu blok kompetensiyaviy faoliyat modelining ilmiy-falsafiy, kognitiv va texnologik asoslarini belgilovchi yadrosi hisoblanadi. Nazariy-metodologik asoslar bloki bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda “asosiy nazariy qarashlar, metodologik yondashuvlar, tafakkur shakllari va raqamli texnologiyalar”ga tayanadi.

3. Faoliyatli blok: Ushbu blok bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan “didaktik faoliyat turlari tizimini” o‘z ichiga oladi. Har bir komponent ta‘lim jarayonining “mazmuniy, texnologik, metodik, innovatsion va tadqiqiy” tomonlarini qamrab oladi.

4. Natijaviy-baholash bloki: Ta‘lim jarayonining yakuniy bosqichida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalar tahlilini amalga oshiradi. Bu blokning asosiy maqsadi, talabalarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini baholash va rivojlanish darajasini aniqlashdir. talabalarning transversal kompetensiyalarini samarali baholash va ularni rivojlantirishda baholash mezonlari, testlar va refleksiya kundaliklarining roli katta.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy refleksiya asosida o‘tkazilgan amaliyotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini statistik jihatdan ahamiyatli darajada oshirgan. Ayniqsa, “tanqidiy fikrlash”, “o‘z-o‘zini boshqarish” va “jamo bilan ishlash” ko‘rsatkichlari eng ko‘p o‘rish ko‘rsatdi. Refleksiv jurnallar tahlilida talabalarning o‘z faoliyatlarini tanqid qilish, xatolardan saboq olish hamda yangi yechimlarni taklif qilish kabi refleksiv ko‘nikmalar rivojlangani aniqlangan va guruhdagi muhokamalar orqali ularning refleksiv tushunchasi chuqurlashtirilgan [7].

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy refleksiya – bo‘lajak o‘qituvchilarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Taklif etilgan model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: (1) refleksiv jurnal yuritish; (2) guruhdagi refleksiv muhokamalar; (3) o‘qituvchi bilan individual maslahatlar; (4) o‘z-o‘zini baholash va (5) amaliyot natijalarini takomillashtirish. Ushbu model nafaqat pedagogika oliy o‘quv yurtlarida, balki malaka oshirish dasturlarida ham qo‘llanishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu modelning turli ta‘lim muhitlarida (masalan, qishloq maktablari, onlayn ta‘lim) qanday ishlashini o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-5957-sonli Farmoni. “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”.
2. European Commission. (2006). Key Competences for Lifelong Learning – A European Reference Framework. Brussels: European Commission.
3. Kember, D., & McKay, J. (2008). Action Learning, Action Research and the Learning Organization: The Integration of Practice and Research. London: Routledge.
4. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books.
5. Larrivee, B. (2008). Authentic Classroom Management: Creating a Community of Learners. Boston: Allyn & Bacon.
6. Partnership for 21st Century Skills (P21). (2019). Framework for 21st Century Learning. Washington, DC: P21.
7. OECD. (2019). The OECD Learning Compass 2030: An Evolutionary Approach to Learning. Paris: OECD Publishing.